

LIDERLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHDA SINF

RAHBARINING O'RNI

Sh. Yuldashev- O'zMU Jizzax filiali katta o'qituvchisi

sheryigit@yuldashev@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada liderlik xususiyatlarining namoyon bo'lishi va liderlik sifatlari shakllanishida sinf rahbarining o'rni ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Sinf, rahbarlik, jamoaviylik, vazifa, bilim, jamoa, maqsad, tarbiya, oila.

Sinf rahbari maktab ma'muriyati bilan birlashtirilganda va mahalla jamoasi, ota-onalar bilan hamkorlikda tarbiyaviy ishlarni olib boradi. Maktab ma'muriyati sinf rahbari va uning olib borayotgan ishlarini doimo qo'llab-kuvvatlashlari lozim. Chunki sinf rahbari o'z o'quvchilarini yaxshi biladi va ularni tarbiyalash uchun nimalar kerakligini hisobga olib ish yuritadi. Sinf rahbari ishini ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha ya'ni tashkilotchi direktor o'rinnibosari boshqarib turadi.

RAHBARIK (fors. yo'lboshchilik) – o'z faoliyati sohasida yuksak ko'rsatkichlarga (natijalarga) erishgan (V.Pareto); xarizmatik (M.Veber); boshqalardan intellektual va axloqiy jihatdan ustun bo'lgan (Dyuverje); siyosiy munosabat larda eng faol, hokimiyat uchun intilayotgan (Mills); jamiyatning tashkillashgan ozchiligi (G.Moska); biologik va irsiy kelib chiqishi sababli jamiyatda yuqori darajaga erishgan (Nisshe); jamiyatda yuksak darajani egallagani bois ijtimoiy taraqqiyotga ta'sir etuvchi (Dyupre); jamiyatda yuqori maqom va obro'-e'tiborga ega bo'lgan kishilar. Mutaxassislarining fikricha, rahbarlik tashkilot rasman mavjud joyda qaror topadi, liderlik esa psixologik munosabatlar asosida vujudga keladi.

Sinf - turli fe'l-atvorli va xarakterli, lekin barchasining yoshi bir xil bo'lgan o'g'il va qizlarning o'qituvchilardan ta'lim olishi va shu jamoaning boshqaruvchisi, yordamchisi va a'lochi o'quvchilar jamoasidir.

Sinf rahbari deganda o'quvchilarini bir xil saviyada, bir xil yoshda, bilimi

jihatidan ham teng bo‘lgan jamoani boshqarib turuvchi pedagog sinf rahbari deb ataladi.

Sinf rahbarining asosiy maqsadi, o‘quvchilarini to‘g’ri tarbiyalash jarayonida o‘quvchi va sinf rahbari bilan bir-birini tushuna olishi va sinf rahbari tomonidan o‘quvchilarga e’tiborliroq bo‘lishi kerak.

Maktabda o‘quvchilarga tarbiya sinf rahbarining ishlari orqali beriladi.

Jumladan, tadbirlar, mushoiralar, har xil kechalar, uchrashuvlar, tanlovlар va boshqa o‘yinlar orqali o‘kuvchilarga ta’lim tarbiya beriladi. Shunga qarab o‘quvchilarning fikrlash qobiliyati rivojlanib boradi.

Sinf rahbarining ish rejasini mакtab direktori va direktor o‘rinbosari tuzadi va nazorat qilib boradi.

Boshlang’ich sinf maktab ta’limining dastlabki bosqichi bolalar o‘qituvchi rahbarligida ta’limda birinchi qadam qo‘yadilar. O‘quv faoliyatida bilim, ko‘nikma va malakalarni egallaydilar. O‘qituvchilik bolalarga bo‘lgan munosabatda, katta mehribonligi bilan g’amho‘rliги harakterlanadi. Bular esa kata talabchanlik bilan olib boriladi. O‘quvchilar bilan bo‘ladigan o‘zaro munosabatlarni to‘g’ri yo‘lga qo‘yish hamda o‘quvchilarning o‘sishi va rivojlanishiga qarab ularni kayta qurish xususiyati ham sinf rahbari uchun muhim ahamiyatga ega.

O‘qituvchilar tomonidan o‘quvchilarga qo‘yiladigan pedagogik talablar berishga erishadi, ota-onalar, kuni uzaytirilgan grupper tarbiyachilari jamoatchilik bilan doimo aloqa bog’lab turadi. Zarur bo‘lgan vaqtida o‘qishda o‘quvchilarga yordam ko‘rsatishni tashkil etadi. Sinf rahbari qiladigan ishlari xujjatlarini olib boradi va uni mакtab ma’muriyatiga taqdim etadi. O‘quvchilar sog’lig’ini mustahkamlashga doir ishlarni o‘tkazadi va jismoniy hamda aqliy mehnat qilishga o‘rgatib boriladi.

Jamoaviylik – odamlarning o‘zaro yaqinligi va hamkorligi asosida shakllangan, dunyo xalqlarida, jumladan, o‘zbeklarda azaldan ijtimoiy birlikni anglatuvchi tushunchadir. Jamoaviylik – odamlarning o‘zaro hamkorlik va yordamga asoslangan hayot kechirish va turmush tarzi bo‘lib, individualizm, shaxsiy xudbinlik, egosentrizmning ziddi hisoblanadi.

Sinf jamoasini tashkil etishda, sinf majlisini tashkil etishda sinf rahbarining roli katta hisoblanadi. Sinf majlisi o‘tkazish uchun avvalo jamoani jipslashtiriladi. Sinf rahbari majlisda ko‘plab masalalar ko‘radilar. Sinf majlisida 3-4 ta masalalar ko‘rilib muammoli tomonlari tahlil qilinadi va o‘z yechimini topish kerak bo‘ladi.

Sinf rahbari majlis o‘tkazishi davomida yaxshi o‘qiydigan bolalarni sinfda ya’ni jamoa ichida rag’batlantirish kerak. Bolalar bir-biriga do‘stona munosabatda bo‘lishadi. Ularni bir-biriga intilib, yaxshi o‘qiy boshlashga intiladi. Yomon o‘qiydigan bolalar ham yaxshi o‘qiydigan bolalarga intilib, ular ham yaxshi o‘qishga intiladi. Bundan tashqari sinf rahbari o‘quvchilarni saviyasi rivojlanishi uchun o‘zi sinfga kutubxona qilishi kerak. Bu kutubxonadagi kitoblarni o‘quvchilar sinfdan tashqari o‘qish vaqtida yoki darsdan so‘ng bo‘sh qolgan paytlarida o‘qib o‘zlariga foydali tomonlarini olishi mumkin. Bizning yosh avlod xalqimizning inqilobiy, mehnat, jangovar an’analarni o‘zlashtirib, o‘ziga katta avlodning eng yaxshi fazilatlarini g’oyaviy e’tiqod va matonatini, Vatanga muhabbatini, uning iqtisodiy-siyosiy va jangovar qudratini mustahkamlashda ishtirok etishiga intilishini singdiribgina o‘z bobolari va otalari ishini davom ettirib va ko‘paytira oladi.

Oila ham jamiyatning bir bo‘lagi hisoblanadi. Oilada bola tarbiyasini yo‘lga qo‘yish juda katta ahamiyatga ega.

Oila boshqa tarbiyaviy muassasalardan farqli ravishda odamning butun hayoti davomida uning barcha tomonlariga dirralariga ta’sir ko‘rsatishga qodirdir va odatda ta’sir ko‘rsatadi. Oila tarbiya vazifasining bu ulkan miqyosi uning mafkuraviy va psixologik ta’sir ko‘rsatishning chuqur o‘ziga xosligi bilan uyg’unlashib ketadi.

Ota-onalar bilan ish shakllari odatda sinf rahbari o‘z shaxsiy xususiyatlarini tajribasini o‘quvchilarning oilalarida vujudga kelgan o‘ziga xos xususiyatlarni, ota-onalarni bilim va tajribasini, bolalarni tarbiyalashda yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan xatolar va qiyinchiliklarni, fe’l-atvor xususiyatlarni maktab pedagoglar jamoasidagi muhitni ota-onalar bilan ish olib borishda tarkib topgan an’analarni va hokazalarni hisobdan olib belgilaydi.

BILIM – ijtimoiy -tarixiy, amaliyatda tekshirilgan va mantiqan tasdiqlangan, voqyelikni bilish jarayonida erishilgan natija; shu voqyelikni inson ongida tasavvurlar, t.lar, muhokama va naz-yalar orqali ifodalangan in’ikosi; kishilarning tabiat va jamiyat hodisalari haqida to‘plagan ma’lumotlari; voqyelikning inson tafakkurida aks etishi

Ota-onalarga pedagogik bilim berishni amalga oshirishda faqat bilim berib qolmasdan, ularni tarbiya sohasidagi amaliy malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, ularning pedagogik faoliyatini uyg’otish mustaqil shug’ullanishga undash, maqsadga muvofiq oila ichki munosabatlarini yo‘lga qo‘yish g’oyat muhimdir.

Ota-onalar yig’ilishlari

- tashkiliy,
- yakuniy chorak yig’ilishlarini
- mavzuga doir yig’ilish bahs,
- yig’ilish praktikum,
- ota-onalarning umumiyligi ta’limi bo‘yicha sinf rejasiga ko‘ra yig’ilish kabi yig’ilishlar bo‘lishi mumkin.

Yakka tartibdagi pedagogik suhbat-sinf rahbarining o‘quvchilar ota-onalar bilan olib boradigan ishining eng ommalashgan, qulay va samarali shakli hisoblanadi. Suhbat yordamida vujudga keladigan masalalarni tez hal etish, ota-onalar bilan ishonchli munosabatlar o‘rnatish, oilaviy tarbiya sharoitlari haqida qo‘sishimcha ma’lumotlar olish, ota-onalarga pedagogik bilim berish, bolaning yakka tarbidagi rivojlanishi dasturini va birgalikdagi pedagogik harakatlar sistemasini ishlab chiqish ota-onalarning tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishlarini va tarbiyasi qiyin bolalar xulqini tuzatish va o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlarda vujudga keladigan kelishmovchiliklarni hal etish kabi keng ko‘lamdagagi ta’lim tarbiyasining vazifalari hal qilinadi.

Har bir ota-onasi o‘z farzandini yaxshi ko‘radi, shuning uchun ular o‘z farzandida hosil bo‘lgan yangi, ijtimoiy jihatlarni mustahkamlash yuzasidan ehtimol utilgan birgalikdagi harakatlari xususida maslahatlashishni muhim deb

hisoblaydigan sinf rahbariga samimiy hurmat va ishonch bilan qaraydilar.

Ota-onalarda pedagogik bilimlarning yo‘qligi oilaviy tarbiyada ko‘plab xatolarga olib keladi. Sinf rahbari ota-onalar bilan ishlashda buni hisobga olmay iloji yo‘q. Bu jihatdan ota-onalarning bolalarni tarbiyalashdagi quyidagi qiyinchiliklari va xatolarini ajratib ko‘rsatish mumkin.

1. Ota-onalarning bolalar bilan muomilasining yetishmasligi. Ular o‘zлari, ishlari haqida kam so‘zlab beradilar. Maktab boalalari jamoasining hayoti, o‘z bolasining qiziqishlari, uning jamoat ishlari bilan ishga munosabati va boshqalar bilan kam qiziqadi.

2. Bolalarni mehnat jarayonlariga jalb etish orqali ularning mehnat tarbiyasini tashkil qila bilmaslik.

3. Ota-onalar turmushda salbiy misollarni mavjudligi mактабning pedagogik kuch-g’ayratini yo‘qqa chiqaradi.

4. Ota-onalar tarbiyaviy ta’sirini izchil emasligini onda-sonda o‘qitishni tekshirish, biror nojo‘ya ish uchun tozalash axloqiy immunitet hosil bo‘lishiga yordam bermaydi.

5. Oilaviy tarbiyaning asosi sifatida ta’qiqlashlar sistemasi, ijtimoiy namuna asosida tarbiyalay bilmaslik, bola hayotini u har doim to‘g’ri xatti-harakatini mashq qiladigan tarzda tashkil eta olmaslik natijasidir.

6. Harakatlarning maktab bilan muvofiqlashtirilmaganligi yoki u bilan kelishmovchiligidadir.

7. Ayrim ota-onalarning bolalar ulg’ayib borishi bilan tarbiyaviy faolligini susaytirib yuborishlari, bu esa bolalarning ota-onalardan uzoqlashuviga, maktabga qiziqishi pasayishiga olib keladi.

8. Qarorlar qabul qilishda kechikish. Bola katta bo‘lgandan keyin aqli kirib, tuzaladi deb o‘ylash odatda o‘zini oqlamaydi, ko‘pincha qayta tarbiyalashni talab etadigan pedagogik jihatdan qarovsizlik holatiga olib keladi.

Pedagogik leksiya pedagogik bilim berishning eng mashhur shakllaridan

biridir. Keyingi paytlarda ota-onalarga pedagogik bilim berish keng miqyos kasb etib, onalarga pedagogik bilm berish korxonalardagi, klublar, madaniyat uylari huzuridagi turar joylardagi va ota-onalar pedagogika universitetlari orqali turli shakllarda amalga oshiriladi.

Xulosa qilb aytadigan bo'lsak, sinf rahbari har doim o'kuvchilaridan xabardor bo'lib turishi kerak. Masalan, bir o'quvchining o'zlashtirishi yomon bo'lsa, uni yaxshilash uchun o'qituvchi birinchi o'rinda ota-onasi bilan uchrashib, surishtirish kerak. Nimaga yaxshi o'qimayapti, nima uchun darslarni o'z vaqtida qilmaydi, shular haqida ota-onasi bilan suhbat olib borish kerak. Agar bolaning oilasida hamma sharoit bo'lib, bola o'zi yaxshi o'qishni hoxlasada, o'zi o'ylagan natijaga erisha olmayotgan bo'lsa, o'qituvchi bolaning yaxshi o'qiydigan o'rtog'ining yoniga o'tqizib qo'yish kerak. Bundan tashqari o'shanga o'xshagan passiv o'quvchilarni to'plab har xil fanlardan, masalan, matematika, ona tili, o'qish va boshqalardan qo'shimcha darslarni tashkil etib, bolalarni o'qishga bo'lgan talabini, qiziqishini yanada oshirishga o'qituvchi harakat qilish kerak. O'qituvchi o'quvchilarning ota-onalari bilan faol ishslash kerak. Negaki, mактабда sinfdan bo'layottan ishlardan ota-onalar ham xabar topib, qiyngangan vaqtida hamroh bo'lish lozim. Buning uchun ota-onalar bilan o'qituvchining o'rtasida bog'lab turuvchi aloqa daftarchasini tutishi va uni doim qoldirmasdan yuritib turishi darkor.

1. Hozirgi zamon pedagogika fani oldida turgan muhim muammolardan biri o'qituvchi va pedagogika mehnat sharoiti muammosi hisoblanadi. Chunki o'qituvchida barcha pedagogik g'oyalar mujassamlangan bo'lib, uning faoliyati orqali bu pedagogik g'oyalar amalga oshiriladi va hayotga tatbiq etiladi.

O'qituvchining ko'p qirrali va murakkab faoliyati zaminida yosh avlodni odobli, e'tiborli qilib tarbiyalash, ularni ilmiy bilimlar bilan qurollantirish kabi muhim vazifalar yotadi. Bularni amalga oshirish esa o'qituvchining xilma-xil faoliyatiga bog'liq: bolalarni o'qitish, mактабдан ташқари ishlarni tashkil eta bilish, o'tkazish, ota-onalar o'rtasida pedagogik targ'ibot ishlarni olib borish va hakozo. Bularni hammasi o'quvchilardan chuqur bilimlarga ega

bo‘lishni, o‘z sohasini, bolalarni sevishni talab etadi.

Sinf rahbari ishining o‘ziga xos xususiyatini shundan iboratki, u oddiy bolalar jamoasini emas, balki o‘quvchilar jamoasini shakllantiradi. O‘quvchilarning asosiy vazifasi o‘qishidan iborat. Shuning uchun sind rahbari dast avval bolalarning o‘qishiga qanday munosabatda ekanliklarini, o‘zlarini qanday tutishlarini uy vazifalarini sidqidildan bajarishlarini yoki bajarmasliklarini aniqlaydi. Va nihoyat eng muhim ularning o‘qishidagi mo‘ljallari nimalardan iborat. Bu mo‘ljallar ijtimoiy mohiyatga molik yoki molik emasligi hisoblanadi. Pedagog sind bilan ishslashning dastlabki bosqichida turli vaziyatlarga duch kelishi mumkin.

Sinf rahbari jamoa rivojlanishining aniqlangan darajasiga qarab tarbiya usullarini darajasiga qarab tarbiya usullarini tanlaydi. Bundan o‘qituvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish qo‘srimcha shart hisoblanadi. Pedagog shaxsni har tamonlama yetuk kamol toptirishda katta rol o‘ynaydi. Aqliy tarbiya shaxsni har tomonlama taraqqiy ettirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchi axloqiy tarbiyasining vazifasi va mazmunini o‘qituvchilardan ekologik ong va madaniyatni shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yuldashev Sheryigit Ergashevich. Leadership as an effective means in management activities. Eurasian journal of humanities and Social Sciences. ISSN: 2795-7683. Volume 5 February, 2022
2. Yuldashev Sheryigit Ergashevich. PSCHOLOGY OF MODERN LEADERSHIP AS AN IMPORTANT PHENOMENON OF EFFECTIVE MANAGEMENT”. Intenational Journal of Early Childhood Special Education ISSN:1308-5581 2022 yil
3. Yuldashev Sheryigit Ergashevich. (2022). KIBERHUJUMLARDAN HIMOYALASHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(1), 46–49. Retrieved from <http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/12>
4. Buribaevich M. K., Zayitovich D. M., Yuldashev S. E. PSYCHOLOGICAL FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF MEMORY IN PRESCHOOL

CHILDREN //Frontline Social Sciences and History Journal. – 2022. – Т. 2. – №. 03. – С. 21-31.

5. Otamuratov R.U. O‘SMIRLARDAGI KASBIY O‘ZLIGINI ANGLASHIDAGI XAVOTIRLANISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI // CARJIS. 2022. №Special Issue 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-smirlardagi-kasbiy-o-zligini-anglashidagi-xavotirlanishning-psixologik-xususiyatlari> (дата обращения: 30.01.2023).
6. Otamuratov R.U., Ochilova M. EMOTSIONAL INTELEKT TUSHUNCHASINING PSIXOLOGIK O‘ZIGA XOSLIGI // CARJIS. 2022. №Special Issue 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/emotsional-intelekt-tushunchasining-psixologik-o-ziga-xosligi> (дата обращения: 30.01.2023).
7. R.U.Otamuratov., Kasbiy tanlovlardagi xavotirlanishning psixologik xususiyatlari., ГЛОБАЛ ДУНЁДА ПСИХОЛОГИЯ ФАНИ: НАЗАРИЯ ВА АМАЛИЁТ, ЧАҚИРУВЛАР ВА ИСТИҚБОЛЛАР Профессор Эргаш Фозиевич Фозиев хотирасига бағишенгандык Республика илмий-амалий конференцияси материаллари 16 феврал 2022 йил 2022 у., - 379 b.
8. Qarshiboyeva G. Oilada bolalarni xalq og‘zaki ijodi na’munalari asosida tarbiyalash //Архив Научных Публикаций JSPI. –2020.
9. Uskanovich, O. R. (2022). PSIXOLOGIYADA XAVOTIRLANISHNING ILMIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 494-498.
10. Шарафитдинов А. и др. Проблема застенчивости у ребенка и ее устранение //Образование и воспитание. –2020. –№. 2. –С. 64-66.
11. Шарафитдинов А. и др. Формирование у учеников чувства общности //Образование и воспитание. –2020. –№. 2. –С. 66-67
12. Маджидов Дж Б, Маджидова В, Шарофиддинов А . Социальный интеллект как совокупность способностей, обеспечивающих адаптацию личности в обществе. страницы: 22-24 источник: актуальные вопросы современной психологии материалы международной научной конференции. 2017

13. Sharaffitdinov, A., & Yusupov, U. (2022). The opportunities of educating morality for children through samples of folklore. Eurasian Scientific Herald, 5, 65-68.
14. Sharafitdinov Abdulla, Qurbanboyev Miraziz Zulxaydar o‘g‘li Psychological Characteristics of DecisionMaking in Management Global Scientific Review A Peer Reviewed, Open Access, International Journal www.scienticreview.com Volume 1, February 2022 ISSN (E): Pending
15. Sharafitdinov Abdulla Qarshiboyev Sardor Alisher ugli 2022, The role of family in the formation of learning motivation for adolescents. Texas Journal of Multidisciplinary Studies ISSN NO: 2770-0003 <https://zienjournals.com> Date of Publication: 30-03-2022
16. Sharofitdinov, A. (2022). O‘SMIRLARDA O‘QUV MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA OILANING O‘RNI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6), 82-87. извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5490>
17. Sharofitdinov, A. (2022). O‘SMIRLARDA JINOYATCHILIK XULQINING KELIB CHIQISHI . Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6), 78-81. извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5489>
18. Abdulla, S., & Zulxaydar o‘g‘li, Q. M. (2022). Psychological Characteristics of DecisionMaking in Management. Global Scientific Review, 1, 14-18.
19. Sharafitdinov, A., & Eshqulova, N. (2022). Xulqi ogishgan osmir oquvchilarda aggressiv xatti-harakatlarning namoyon bolishi. Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar, 1(1), 483-485.
20. Shovxiyev, L., & Sharafitdinov, A. (2022). Psixologiyada tush korish tilsimlari. Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar, 1(1), 485-488.
21. Sharafitdinov, A., & Shovxiyev, L. (2022). Hissiy intellekt va uning shakllanishi. Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va

- rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar, 1(1), 437-440.
22. Abdulla, S. (2022, March). THE ROLE OF FAMILY IN THE FORMATION OF LEARNING MOTIVATION FOR ADOLESCENTS. In Conference Zone (pp. 286-288).
23. Sharofitdinov, A. (2022). OILADA SIBLING MAQOMI MUNOSABATLARINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(3).
24. Sharofitdinov, A., & Umidjon, Y. (2022). SHAXSIY KAMOLOTDA ART-TERAPEVTIK MASHQLAR. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(3).
25. Sharofitdinov, A. (2022). Destruktiv xulq-atvor paydo bo ‘lishi va shakllanishining ijtimoiy psixologik omillari. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(3).
26. Sharofitdinov, A. (2022). SHAXS RIVOJLANISHIDA HISSIY INTELLEKTNING O’ZIGA XOS O’RNI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(5).
27. Sharofitdinov, A. (2022). SPORT BILAN SHUG‘ULLANUVCHI BOLALARNING HISSIY-IRODAVIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(5).
28. Sharafitdinov Abdulla XXX, Soyimnazarov Navro‘zbek Baxtiyor ugli, Nishonov Muhammadali Narimon ugli. Characteristics of Emotional Intelligence in Managers Volume: 01 Issue: 10|Oct–2022
29. XXX S. A. et al. PSYCHOLOGICAL DESCRIPTION OF THE CONCEPT OF EMOTIONAL INTELLIGENCE //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – T. 7. – C. 71-75.
30. XXX, Sharafitdinov Abdulla. "CHARACTERISTICS OF EMOTIONAL INTELLIGENCE IN MANAGERS." European Journal of Interdisciplinary Research and Development 8 (2022): 22-25.
31. XXX, Sharafitdinov Abdulla. "Scientific-Theoretical Psychological Analysis

- of Personal Activity Motivation." Zien Journal of Social Sciences and Humanities 14 (2022): 72-75.
32. Ustin Pavel Nikolaevich, Sharafitdinov Abdulla XXX, & Yusupov Umidjon Salim Salim ugli. (2022). Emotional Intelligence and its Adolescents Being an Exemplary. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 15, 139–145. Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/2963>
33. Sharafitdinov Abdulla, Karakulova Umida Abduvakilovna, Rahmatullayeva Mushtariy Parda qizi. (2022). AXBOROT SAVODXONLIGI VA AXBOROT IZLASH XULQ-ATVORIDAGI PSIXOLOGIK OMILLAR. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 586–589. Retrieved from <http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/279>
34. Sharafitdinov Abdulla, Yuldasheva Sojida Zoyirovna. (2022). ZAMONAVIY AXBOROTLASHTIRISH JARAYONLARINING SHAXS INDIVIDUAL XUSUSIYATLARIGA TA'SIRI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 432–436. Retrieved from <http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/226>
35. Arakulov, G. (2023). ВНИМАНИЕ – ВАЖНОЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЯВЛЕНИЕ У ДОШКОЛЬНИКОВ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7681>
36. Arakulov, G. (2023). АГРЕССИЯ - ЎСМИРЛАРДА ТАЖОВУЗКОРЛИК ШАКЛЛАНИШИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ФЕНОМЕН СИФАТИДА. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7714>
37. Yuldashev, S. (2022). KIBERHUJUMLARDAN HIMROYALASHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/6548>